

KESARCHA TUG'RUQ TARIXI, IJOBIY VA SALBIY TARAFLARI

Kokand University Andijon filiali Tibbiyot fakulteti
Davolash ishi yo'nalishi II bosqich talalari
Mutallibova Oyshaxon

Annotatsiya

Maqolada bugungi kunda O'zbekiston va boshqa markaziy osiya mamlakatlarida keng tarqalgan "Kesarcha kesish" usuli haqida so'z boradi. Uning yaxshi, yomon tomonlari, ona hamda bolaga patologik, mikrobiologik va immunologik ta'sirlari xususida o'rganilgan natijalar tahlil etiladi.

Annotation

The article discusses the method of "Cesarean section", which is widespread today in Uzbekistan and other Central Asian countries. The study results on its good and bad sides, pathological, microbiological and immunological effects on mother and child are analysed.

Аннотация

В статье рассказывается о методе «Кесарево сечение», который широко распространен сегодня в Узбекистане и других странах Центральной Азии. Проанализированы результаты исследования о его положительных и отрицательных сторонах, патологическом, микробиологическом и иммунологическом влиянии на мать и ребенка.

Kalit so'zlar:

Bir kunning o'zida dunyoda o'rtacha 385 ming bola [tug'iladi](#). Ona bolasini 2 xil usulda: tabiiy va kesarcha kesish usuli bilan tug'ishi mumkin. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ruxsat bergan me'yorga ko'ra, jami tug'uruqlarning 10-15 foizi kesarcha kesish usuli bilan amalga oshirilishi kerak. Biroq kesarcha kesish usulida farzand dunyoga keltirish ko'rsatkichi yildan yilga oshib boryapti. Hozir dunyo bo'yicha 21 foiz tug'uruq kesarcha kesish usulida amalga oshiriladi. 2030 yilga borib bu ko'rsatkich 29 foizga yetishi prognoz qilingan.

Kesar kesishi (lot. sectio — yorish, ochish; caedo — kesaman) — xirurgik operatsiya; akusherlik amaliyotida qorinning oldingi devorini va bachadonni kesib (ba'zan qin tomondan kesiladi — bu qinni kesar kesish deyiladi), homila va yo'ldoshni olish. Tabiiy tug'ruq yo'li orqali bola tug'ilishi mumkin bo'lmagan hollar (masalan, ayol chanog'ining torligi yoki bachadonning yorilish xavfi tug'ilishi va boshqalar)da, shuningdek, tug'ayotgan ayol jiddiy kasal bo'lganda (masalan, yurak poroklarida) qilinadi. Hozirda kesar kesish amaliyoti bachadonning pastki segmentini kesib ochish yo'li bilan bajariladi. Buning uchun qorin devorini qavatma-qavat kesib,

bachadongacha boriladi; uning ham qovuqdan yuqori qismi ko'ndalang kesiladi va dastlab homila, keyin yo'ldosh chiqarib olinadi. Shundan so'ng bachadon devori, keyin qorin devori qavatma-qavat tikiladi. Bir marta kesar kesish amaliyotini boshidan kechirgan ayolda bachadon chandig'i yuzaga kelishi sababli keyingi homiladorlik va tug'ruq vrach ko'rsatmasiga qat'iy amal qilingan holda bo'lishi lozim. Kesarcha kesish uchun asosiy shartlar:

- Tug'ish faoliyatining zaifligi yoki uning to'liq to'xtashi;
- Normal joylashgan yo'ldoshning erta ajralishi (homilani kislorod bilan ta'minlanishi to'xtaydi va hayot uchun xavfli bo'lgan qon ketishi boshlanishi mumkin);
- Bachadon yorilishi xavfi paydo bo'lsa;
- O'tkir gipoksiya (bolaga kislorod yetishmasligi).

Uning tarixiga yuzlansak. Tarixdagi ilk muvaffaqiyatli kesarcha kesish 1337-yilda Pragada amalga oshirilgan. Mlada Fronta Dnes gazetasining ma'lum qilishicha, operatsiya natijasida ona va bolaning hayoti saqlab qolingani, deb yozadi "TASS". Nashrning qayd etishicha, ham ona, ham bolaning hayotini saqlab qolishga erishilgan tarixdagi ilk kesarcha kesish 1337-yilda Pragada o'tkazilgan. Tug'uruq operatsiyasi Chexiya qiroli Iogann Lyuksemburgning saroyida amalga oshirilgan. Operatsiya yordamida ko'z yorigan ayol uning ikkinchi xotini Beatrisa de Burbon, dunyoga kelgan chaqaloq esa Vatslav edi. Nashrda qayd etilishicha, ushbu ixtiro tibbiyot tarixini qayta yozishga undaydi. Dunyo tarix faniga shu paytga qadar 1500-yillar atrofida Shveysariyada muvaffaqiyatli amalga oshirilgan yagona kesarcha kesish holati haqida ma'lum edi. XIX asrning ikkinchi yarmida ham kesarcha kesish operatsiyasini o'tkazish jarayonida ayollarning 90 foizi chidab bo'lmas og'riq, qon yo'qotish yoki sepsis tufayli halok bo'lgan.



Bugungi kunda Kesarcha kesish orqali tug'ruqning bir qancha ijobiy tomonlari bor. Masalan, og'ir holdagi ayol (qon bosimin yuqori, shikastlangan, kuchsiz, ruhan qo'rquv) ushbu yo'l bilan tug'dirilishi mumkin. Yoxud bachadonda bolaning dimlanib qolishi, to'g'ri yo'nalmasligi va yoki tanasining kattaligi tufayli ham, kesarcha usul

yordam berishi mumkin. Hozirgi kundagi zamonaviy tibbiyot yutuqlari orqali, qadimgidek turli kasallilar yuqishi yoxud yiringli yaralar paydo bo'lishi deyarli uchramaydi. Quyida qator afzalliklarni ko'rishimiz mumkin:


- *Klinik jihatdan tor chanoqqa ega bo'lgan ayollarda nisbatan xavfsiz tug'ish;*
- *Tabiiy tug'ish onaning yoki bolaning sog'lig'iga / hayotiga tahdid soladigan hollarda kesarcha kesishning ziyoni mumkin bo'lgan asoratlarning ziyonidan ancha past;*
- *Qin cho'zilmaydi, epiziotomiya tufayli oraliqqa choklar qo'yilmaydi, shuning uchun jinsiy hayot bilan bog'liq muammo yuzaga kelmaydi;*
- *Gemorroy va tos a'zolarining tushishidan qochish imkoni;*
- *Tug'ruq yo'llaridan o'tayotganda bolaning boshi deformatsiyalanishi ehtimoli bo'lmaydi.*

Ammo bu usulning salbiy taraflari ham anchagina. Hozirda O'zbekistonda ko'plab ayollar sog'lom bo'la turib, o'zlari uchun 'Kesarcha kesish' usulini tanlamoqdalar. Bu esa ancha achinarli, albatta. "Kesarcha kesish" usulining ko'plab salbiy oqibatlari bor:

- Onaning qorin bo'shlig'i infeksiyalanishi ehtimoli;
- Ayrim hollarda jiddiy, shu jumladan hayot uchun xavfli asoratlarning ehtimoli tabiiy tug'ruqqa qaraganda taxminan 10 marta yuqori;
- Ayrim hollarda laktatsiya jarayonining boshlanishi qiyinligi;
- Kesarcha kesishdan qolgan bachadon chandig'i, sodir bo'lgan va keyingi tug'ish (agar rejalashtirilayotgan bo'lsa) o'rtasida uzoq muddatli tanaffusga ehtiyoj tug'diradi, chunki keyingi tug'ruqdagi to'lg'oqda bachadon mushak qatlamining qisqarishi shu daraja kuchli bo'ladiki, ba'zi holatlarda (statistik ma'lumotlarga ko'ra 1-2 foiz) chandiq bardosh bera olmaydi va ochilib ketadi. Ushbu muammoni hal qilish mumkin, buning uchun shifokor kesarcha kesish o'tkazilganidan keyin darhol bachadonning kesilgan joyi tezroq bitib ketishi uchun terapiyani boshlashi kerak. Ya'ni, keyingi homiladorlik uchun, sodir bo'lgan tug'ruqning dastlabki soatlardan boshlab choralar ko'rish zarur bo'ladi.

- Tabiiy tug'ruq fiziologik jarayonining «tugallanmaganligi» sababli onada psixozlar rivojlanishi bilan bog'liq stresslar ehtimoli;
- Homila qiz bo'lganida onaning vaginal mikroflorasi bolaga o'tmasligi, bunday mikroflora qizlarda vulvovaginit rivojlanish ehtimoli kamaytiradi;
- Kesarcha kesish bilan tug'ilgan bolalarda astma, 2-toifa diabet kasalligi (1-toifa tug'ma patologiya bo'lgani uchun) rivojlanishi ehtimoli yuqori bo'ladi, ichak mikroflorasi farq qiladi. *The Times of India* xabariga ko'ra, sichqon misolida olimlarning olib borgan tadqiqotlari natijalari kesarcha kesish orqali tug'ilgan

bola organizmining himoya funktsiyasi (immuniteti) pasayishini ko'rsatgan, chunki tug'ilish paytida ona organizmidagi ichak bakteriyalari bilan aloqa bo'lmaydi.



2020-yilda “Kesarcha kesish” usuli bilan tug'ilishlarning xalqaro statistikasi

2012 yilda dunyo bo'ylab 23 millionga yaqin kesma kesilgan. Xalqaro sog'liqni saqlash hamjamiyati ilgari 10% va 15% ni sezaryen uchun ideal deb hisoblagan. Ba'zi dalillar 19% yuqori ko'rsatkichni yaxshiroq natijalarga olib kelishi mumkinligini aniqlaydi. Dunyo miqyosida 45 dan ortiq mamlakatlarda kesma stavkalari 7,5% dan kam, 50 dan ortiq mamlakatlarda esa 27% dan yuqori. Kesa-bo'limiga kirishni yaxshilash va undan foydalanishni kamaytirishga harakat qilinmoqda. Qo'shma Shtatlarda 2017 yil holatiga ko'ra, etkazib berishning taxminan 32% C-bo'limiga to'g'ri keladi. Operatsiya hech bo'lmaganda miloddan avvalgi 715 yilda onaning o'limidan so'ng amalga oshirilgan va chaqaloq vaqti-vaqti bilan tirik qolgan. Rim davlat arbobi Yuliy Sezar sezaryen orqali tug'ilgan va bu jarayonning nomi hisoblanadi, degan mashhur fikr shuki, lekin agar bu haqiqiy etimologiya bo'lsa, bu noto'g'ri tushunchaga asoslanadi: zamonaviy davrgacha, kesar kesmalari ko'rinadi. Keysarning onasi Aureliya nafaqat o'g'li tug'ilgandan keyin omon qoldi, balki 50 yil umr ko'rdi. yillar o'tib. Butun dunyoda, ayniqsa Yevropa, Yaqin Sharq va Osiyoda C-bo'limlari haqidagi ko'plab qadimiy va o'rta asr afsonalari, og'zaki tarix va qonunlarning tarixiy yozuvlari mavjud. Birinchi muvaffaqiyatli C-bo'limi (ona va chaqaloq omon qolgan) 1500 yilda Shveytsariyada bir ayolda uning turmush o'rtog'i Yakob Nufer tomonidan amalga oshirilgan, ammo bu 8 o'n yil o'tgach qayd etilmagan. ^[13] 19-asrda antiseptiklar va anesteziikalarning kiritilishi bilan onaning ham, chaqaloqning ham omon qolishi va shuning uchun protsedura sezilarli darajada kengaydi

- Eng keng tarqalgan asoratlardan biri — bitishmalar (spayka) hisoblanadi. Ichak qovuzloqlari yoki qorin bo'shlig'ining boshqa a'zolari bir-

biri bilan birlashib ketadi. Davolash, ayolning individual xususiyatlariga bog'liq: bu oddiy fizioterapiya muolajalari bilan chegaralanish yoki jarrohlik aralashuvigacha borishi mumkin.

- **Endometrit** — bachadonda yallig'lanish jarayonidir. Aynan uning oldini olish uchun operatsiyadan keyin darhol antibiotiklar buyuriladi.
- **Qon ketishi** shuningdek kesarcha kesish asorati qatoriga kiradi va kamdan-kam hollarda bachadonni olib tashlash zaruratini tug'diradi.
- Asoratlari, shuningdek, **choklarning bitib ketishida** ham yuzaga kelishi mumkin, ba'zan ular ochilib ketadi.
- **Anesteziyadan keyingi murakkabliklar.** Operatsiyadan keyin og'riq qoldiruvchili kateter yana bir muddat belda qoldiriladi va u orqali og'riq qoldiruvchi preparatlar kiritib turiladi. Shu sababli, operatsiya tugagach, ayol bir yoki ikkala oyoqlarini sezmasligi, bir muddat yura olmasligi mumkin.
- Ba'zan ayolni kushetkaga ko'chirib o'tkazishda uning oyoqlari qayrilib qolishi mumkin, og'riq qoldiruvchilar ta'siri ostida bo'lgan ayol buni sezmaydi va oyoq shu holatda qolib ketadi. Oyoqning uzoq muddat notabiiy holatda bo'lishi natijasida **davomli pozitsion bosilish sindromi** rivojlanadi. Boshqacha qilib aytganda, yumshoq to'qimalar uzoq vaqt qon ta'minotisiz qolib ketadi. Bosilish bartaraf etilgach esa shok, kuchli shish, oyoq harakat faoliyatining buzilish va ba'zan buyrak yetishmovchiligi rivojlanishi mumkin, bularning barchasi bir necha oy davom etishi mumkin bo'lgan kuchli og'riq bilan kechadi.
- Shu sababli, tug'ruqxona personalidan sizni kushetkaga to'g'ri olib o'tganliklarini tekshirishni so'rang. Yodda tuting, bunday oddiy xatolik fojiali yakun yasashi mumkin. Shu bilan birga, anesteziyaga doimo bosh va bel og'rig'i hamrohlik qiladi.

Tabiiy tug'ruqda chaqaloq tug'ilish yo'lida o'ziga ona qinidan, keyin esa ona tanasidan foydali ichak bakteriyalarini oladi. Bu esa tabiiy laktobakteriyalar manbai hisoblanadi. Yana tabiiy tug'ruqda bolaning ko'krak qafasi qisilib, o'pkadagi suv chiqib ketadi. Ammo, "Kesarcha kesish" bu xususiyatlarning bo'lishi qiyin. Xulosa o'rnida shuni aytamizki, "Kesarcha kesish" bu o'z holatida, aynan sabablari bo'lganda qilish mumkin bo'lgan "foydali" amaliyot. Biroq, tabiiy tug'ruq hammasidan ham yaxshi.